

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 04/02.07.2024.
Tib.122.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

SHALANKOV KONSTANTIN KONSTANTINOVICH

**MUSIQA TERAPIYASI DARSLARIDA TIBBIYOT TALABALARINING
MUSTAQIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK
SHARTLARI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tibbiyot)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Shalankov Konstantin Konstantinovich

Musiqa terapiyasi darslarida tibbiyot talabalarining mustaqil faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari.....3

Шаланков Константин Константинович

Педагогические условия организации самостоятельной деятельности студентов медиков в процессе занятий музыкотерапией.....23

Shalankov Konstantin Konstantinovich

Pedagogical conditions for organizing independent activities of medical students during music therapy sessions.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published work.....49

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD 04/02.07.2024.
Tib.122.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI

SHALANKOV KONSTANTIN KONSTANTINOVICH

**MUSIQA TERAPIYASI DARSLARIDA TIBBIYOT TALABALARINING
MUSTAQIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK
SHARTLARI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (tibbiyot)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2 PhD/Ped7955 - raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining veb-sahifasi (www.fjsti.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kadirova Munira Rasulovna
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentalar:

Egamberdiyeva Turg'unoy Axmadjonovna
Pedagogika fanlari doktori, professor

Olimova Dano Shakirovna
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD. 04/02.07.2024. Tib.122.02 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "30" may soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160119, Farg'ona shahri, Yangi Turon ko'chasi 2a-uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (287 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 160119, Farg'ona shahri, Yangi Turon ko'chasi 2a-uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "16" 05 kuni tarqatildi.

(2025-yil "20" 05 da 6 - raqamli reyestr bayonnomasi).



F.Y.Yuldashev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

M.T. Rasulova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD

N.B. Komilov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy Kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy tibbiy ta'lim oldidagi muammolar, xususan, talabalar o'rtasidagi yuqori darajadagi stress va yangi tibbiy texnologiyalarni tez o'zlashtirish zaruriyati, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Ana shunday yondashuvlardan biri sifatida Musiqa terapiyasi fanida foydalanish mumkin, chunki u bo'lajak mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yordam beradi, ularning emotsional holatini yaxshilaydi va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Musiqa terapiyasi, fan sifatida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. U tibbiy, psixologik va pedagogik jihatlarni o'z ichiga olgan integratsiyalashgan yondashuvni qamrab oladi. Bu esa talabalarga nafaqat kasbiy kompetentsiyalarini mukammallashtirishga, balki emotsional barqarorlikni oshirish, kreativlik, o'z-o'zini tashkil etish va uzluksiz o'qish qobiliyatini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa tez yangilanib borayotgan bilim va texnologiyalar sharoitida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonning yetakchi tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining Musiqa terapiyasi fanini mustaqil o'zlashtirishni tashkil etish belgilangan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega. Bu talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil qilish, rejalashtirish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bunday sifatlar tibbiy mutaxassislar uchun o'quv materialini samarali o'zlashtirish, fanlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish va kasbiy ko'nikmalarning zamonaviy talablariga moslashish uchun zarurdir. G'arbiy Yevropa va AQShning ko'plab mamlakatlarida musiqiy psixoterapiya markazlari vujudga keldi va ommalashdi: Shvetsiya va Avstriyada – “O'sterreichische Gesellschaft zur Fo'rderung der Musiktherapie”, Shveytsariyada – “Schweizer Forum für Musiktherapie”, Germaniyada – “Bundesarbeitsgemeinschaft-Musiktherapie” (BAG Musiktherapie). Polshada demensiya, shizofreniya va depressiyani davolashda musiqa terapiyasining samaradorligi o'rganilmoqda. Musiqa terapiyasi o'quv fani sifatida jahonning yetakchi tibbiy ta'lim va klinik muassasalarida ham keng tarqaldi. Buyuk Britaniyada (Roehampton universiteti), Germaniyada (Heidelbergdagi SRH universiteti) va AQShda (Mayami universiteti qoshidagi Frost musiqa maktabi) klinik amaliyot va ilmiy tadqiqotlarga yo'naltirilgan mutaxassislarni tayyorlash dasturlari amalga oshirilayotganligi katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mamlakatimizda ham tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida musiqa terapiyasini o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish lozim. Bu yo'nalishni joriy etish nafaqat bo'lajak shifokorlarning kasbiy malakalarini kengaytiradi, balki bemorlarni ruhiy va hissiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan rehabilitatsiya dasturlarining samaradorligini ham oshiradi. “Ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish”¹ muhim ustuvor vazifa

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrgi “O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son.

sifatida belgilangan. Musiqa terapiyasini o'rganish jarayonida tibbiyot talabalari mustaqil faoliyatni tashkil etishga ko'maklashadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratish zarur. Bu ularga musiqaning inson organizmiga ta'sir etish mexanizmlarini chuqurroq o'zlashtirish, amaliyotda musiqa terapiyasi usullarini qo'llashni o'rganish va ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 6-maydagi PQ-4310-sonli "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fanini tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va mazkur faoliyatga, tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz pedagog-psixolog olimlaridan musiqa terapiyasi va uning ta'sirini K.B.Xoliqov, S.Mannopov va N.E.Raxmatov, talabalarining mustaqil faoliyatini G.M.Musaxanova, N.Atayeva, M.Salayeva, S.Xasanov, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida talabalarni kasbiy kompetentligini metodik takomillashtirish bo'yicha M.R.Kadirova, N.B.Komilov, I.X.Iminaxunova tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarida pedagogik muloqot vositasida kasbiy tafakkurni rivojlantirish, tibbiyot kollejlari o'quvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish masalalari bilan, G.N.Kurbanova, E.Yu.Rahimova, tibbiyot instituti talabalari o'quv faoliyati motivatsiyasini tashxis qilish masalalari bilan psixolog olim G.D.Kuldasheva, bo'lajak shifokorlarda kasbiy – ma'naviy fazilatlarni tarbiyalash tizimini rivojlantirish masalalari bilan N.D.Axmedova, Sh.P.Ergashevalar tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot olib borgan.

MDH mamlakatlarida tadqiqot olib borgan pedagog-psixolog olimlardan talabalarining mustaqil faoliyatni tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari, o'z-o'zini takomillashtirishning kontseptual masalalari va musiqiy terapiyaga oid masalalar A.Usova, I.Zimnyaya, S.Godnik, G.Kodjaspirova, M.V.Magayeva, A.F.Plexanov, L.A.Vvedenskaya, N.T.Juravskaya, Z.S.Jirkova, V.I.Zagvyazinskiy, T.A.Ilina, M.A.Ivanova, S.R.Kalina, A.P.Usova, L.S.Belousova, T.A.Sokolova, S.N.Filippenko, V.S.Merlin, S.V.Shumarjak izlanishlarida aks etgan.

Xorijlik olimlardan K.Dweck, R.Mayer, B.Zimmerman, S.M.Koger oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil faoliyati bo'yicha salmoqli tadqiqotlar olib borishgan. M.Benzenon, Joseph Altshuler, P.Nordoff, C.Robbins, Edward Targ, Bruce L.Perry, Johannes Hampton, Gerassimovich G.I., Ian H. Gotlib, Gromko J.E., Halpern A.R., Yu.A.Ganzburg, T.Mueller, G.Hudson, J.Lee, K.Pelletier musiqa terapiyasi va uning ta'sirini o'rganishgan.

Olib borilgan tadqiqotlar, tahlillar shuni ko'rsatadiki, tibbiyot oliy o'quv yurti talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda Musiqa terapiyasi fanini o'qitish jarayonida ularning mustaqil faoliyatini tashkil etish masalalari muammo sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ilmiy – tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Zamonaviy pedagogikani rivojlantirishda fanlararo integratsion jarayonlarni tashkil etishning istiqbollari” mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – tibbiy ta'limda musiqa terapiyasini o'rganish jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatini samarali tashkil etishga ko'maklashadigan uslubiy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tibbiy ta'lim talabalarini mustaqil ta'lim faoliyatga tayyorlashda kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslarini aniqlash;

musiqiy terapiyaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda tibbiyot ta'limi tizimida talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishga oid pedagogik yondashuvlarni tahlil qilish;

musiqiy terapiyani o'rganish jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqish;

tadqiqot natijalarini tahlil qilish va musiqiy terapiya mashg'ulotlari davomida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil faoliyatini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish yuzasidan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti – tibbiy ta'lim talabalarida musiqiy terapiya fani asosida, talabalarning mustaqil ishi jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti – tibbiy ta'limda talabalarni musiqa terapiyasi fani asosida mustaqil ishlarini tashkil etishning, shakllari, usullari va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahliliy o'rganish, modellashtirish, anketa so'rovlari, testlar, pedagogik kuzatish, suhbat, integral diagnostika, sotsiometriya, pedagogik eksperiment, sotsiologik so'rovlar, kontent tahlil, intervyu, matematik-statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tibbiy ta'limda talabalarning musiqiy madaniyatini rivojlantirishda mutaxassislik fanlari bilan integratsiyasi, sillabuslarni kollaborativ jihatdan o'quv dasturlarini interpretatsiyalash asosida takomillashtirilgan

Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarining mazmun-mohiyatiga ko'ra musiqa terapiyasi bo'yicha mashg'ulotlarni kasalliklar turlari(turkumi)ga qarab

klassifikatsiyalash asoslangan holda musiqa terapiyasi mashg'ulotlari variativ o'quv modellarini bosqichma-bosqich tatbiq etishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

talabalarni kasbiy faoliyatga maqsadli yo'naltirishda ta'lim jarayoniga "Musiqa terapiyasi" fanini kiritish maqsadga muvofiqligi asoslanib, limbik tizim orqali serotonin va dofamin kabi neyromediator elementlarini o'rganishning algoritmik bosqichlari hamda integral yondashuvlarni virtual ta'limda qo'llash jarayoni asoslangan.

"Musiqa terapiyasi" fani orqali bemorlarda neyromediatorlar faolligini oshirishga yordam beruvchi individual xususiyatlar, ehtiyojlar va motivlar aniqlanib, ularning kasalliklarning patogenetik xususiyatlariga mos keluvchi eksperimental dars shakllari taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'iga asosan 60910200 – Davolash ishi yo'nalishi talabalarini uchun Musiqa va salomatlik nomli o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan;

Musiqa terapiyasi fanidan elektron o'quv qo'llanmasi (DGU 49486) barcha tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalariga joriy etilgan;

tibbiy ta'lim talabalarini mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini baholash uchun talabalarining kasbiy faoliyati motivatsiyasining sabablari bo'yicha diagnostika metodikasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: ishda qo'llangan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, empirik o'rganishlar asosida keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tibbiy ta'lim talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda musiqa terapiyasi orqali mustaqil ta'lim faoliyatiga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlar hamda pedagogik shart-sharoitlar takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar respublika tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining bakalavr ta'lim yo'nalishlarida tibbiy ta'lim talabalarining Musiqa terapiyasi fani orqali mustaqil ta'limini rivojlantirish sifatini yangi bosqichiga olib chiqish imkonini bergani bilan ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmalaridan, ilmiy-amaliy tavsiyalardan tibbiy ta'lim muassasasi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda tibbiy ta'lim muassasalarining barcha yo'nalishlari talabalarini o'qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan belgilandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tibbiy ta'limda talabalarining musiqiy madaniyatini rivojlantirishda mutaxassislik fanlari bilan integratsiyalash hamda sillabuslarni kollaborativ jihatdan interpretatsiyalashga doir amaliy natijalar "Musiqa va salomatlik" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy

ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan nashr ruxsatnomasi). Natijada tibbiyot oliy o'quv yurtlarida musiqiy madaniyatni rivojlantirishga oid o'quv jarayonlari fanlararo integratsiya asosida takomillashtirildi.

Abu Ali Ibn Sino asarlari, xususan "Tib qonunlari" asosida musiqa terapiyasining kasalliklar turiga ko'ra klassifikatsiya qilinib, variativ o'quv modellarini bosqichma-bosqich tatbiq etishga oid takliflar "Musiqa va salomatlik" nomli o'quv qo'llanmasi (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan nashr ruxsatnomasi) tarkibiga kiritilgan. Natijada tibbiy ta'limda musiqaning terapevtik imkoniyatlarini tizimli asosda qo'llash mexanizmlari shakllantirildi.

Tibbiy ta'lim jarayoniga "Musiqa terapiyasi" fanini kiritish, serotonin va dofamin kabi neyromediatorlar faoliyatini limbik tizim orqali tushuntirishga asoslangan algoritmik bosqichlar va integral yondashuvlarni virtual ta'limda qo'llashga doir takliflar "Musiqa va salomatlik" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan. Natijada virtual ta'lim muhitida neyrobiologik asoslangan musiqiy terapiya yondashuvlarining samaradorligi ortgan.

"Musiqa terapiyasi" fani orqali bemorlarda neyromediatorlar faolligini oshirishga xizmat qiluvchi individual xususiyatlar, ehtiyojlar va motivlarga asoslangan eksperimental dars shakllarini ishlab chiqishga doir takliflar "Musiqa va salomatlik" nomli o'quv qo'llanmasi tarkibiga singdirilgan. Natijada

Musiqa terapiyasi fanini o'qitishda talabalarning loyihalash elementlarini o'rgatishning algoritmik bosqichlari klasterli yondashuvlarining virtual ta'limda qo'llash samaradorligi ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan ilmiy tadqiqotlarning asosiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammo o'rganilganlik darajasi bayon qilingan. Shuningdek, tadqiqotning oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot

rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot metodlari yoritilgan. Ilmiy yangilik, tadqiqotning amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, amaliyotga tatbiq etilishi, aprobatsiyasi, natijalarning chop etilganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Musiqasi terapiyasi mashg'ulotlari jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini rivojlantirishning pedagogik va metodologik shartlari**» deb nomlanib, unda ilmiy adabiyotlar tahlili taqdim etilgan. Tibbiy ta'limni modernizatsiya qilish sharoitida yuqori kasbiy kompetentsiya, ijodiy tafakkur va hissiy barqarorlikka ega mutaxassislarni tayyorlashda innovatsion metodlar, jumladan, musiqa terapiyasining integratsiyasi muhimligi ta'kidlangan. Birinchi bo'lim tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik va metodologik shartlar tahliliga bag'ishlangan.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari pedagogika klassiklari (Ya.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, P.F.Kapterev) hamda zamonaviy olimlar (I.A.Zimnyaya, V.I.Zagvyazinskiy) ishlariga asoslangan bo'lib, ular mustaqil ishning (SRS) kasbiy mustaqillik, tanqidiy tafakkur va o'z-o'zini boshqarish shakllanishidagi rolini ta'kidlaydi. P.Ya.Galperinning bosqichma-bosqich fikrlash harakatlari nazariyasi va L.S.Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi hamkorlikdan mustaqil faoliyatga bosqichma-bosqich o'tish zaruriyatini asoslaydi. Tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, musiqa terapiyasi bilan mustahkamlangan mustaqil ish nafaqat bilimlarni chuqur o'zlashtirishga, balki empatiya, stressga bardoshlilik va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa tibbiy amaliyotda juda muhimdir.

Musiqa terapiyasining ta'lim jarayoniga integratsiyasi uning ko'p darajali ta'siri orqali ochib berilgan. Musiqa terapiyasi insonning psixoemotsional, fiziologik va kognitiv holatiga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Psixoemotsional jihatdan uning qo'llanilishi xavotirni kamaytirish va depressiv holatlarni tuzatishga yordam beradi (E.V.Levchenko, Yu.A.Ganzburg), shuningdek, reseptiv (musiqasi tinglash) va faol (improvizatsiya, vokal mashqlar) usullari orqali hissiy barqarorlikni ta'minlaydi (P.Nordoff, K.Robbins). Innovatsion yondashuvlardan biri — "Miya musiqasi" (Y.I.Levin) bo'lib, u EEG ma'lumotlarini musiqiy kompozitsiyalarga aylantirish orqali uyqusizlik va stressga qarshi kurashda qo'llaniladi.

Kognitiv va reabilitatsion jihatdan musiqa miya neyroplastikligini rag'batlantiradi hamda jarohatlar va insultdan keyin harakat funksiyalarini tiklashga yordam beradi (S.P.Lavrov). Bundan tashqari, musiqaning nafas mashqlari bilan kombinatsiyasi diqqatni jamlash va xotirani yaxshilashga xizmat qiladi (A.N.Strelnikova). Bu omillar musiqa terapiyasini tibbiy-pedagogik jihatdan samarali vositaga aylantiradi.

Adabiyotlar sharhi musiqa terapiyasining ta'lim va tibbiyot sohasidagi samaradorligini tasdiqlaydi. G.I.Gerasimovichning tadqiqotlari musiqa terapiyasining talabalarning kognitiv jarayonlarini faollashtirishga yordam berishini, S.V.Shumarjakning ishlari esa musiqiy amaliyotlarning mustaqil ishga moslashishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. «Musiqasi va salomatlik» tanlov

kursining joriy etilishi bo'lajak shifokorlarga individual terapiya dasturlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini egallashga, shu orqali fanlararo yondashuv va empatiyani shakllantirishga yordam beradi.

Talabalarning mustaqil faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy sharti malakali o'qituvchilar tayyorlash bo'lib, bu uch asosiy omilni o'z ichiga oladi:

Nazariy asos – psixoakustika hamda musiqaning kognitiv va hissiy jarayonlarga ta'siri bo'yicha fundamental bilimlar (A.S.Lednev, B.L.Perri).

Amaliy kompetentsiyalar – raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish (E.Ruud), interaktiv o'qitish metodlarini qo'llash (J.M.Standley) va ta'lim dasturlarini talabalarning ehtiyojlariga moslashtirish.

Kasbiy rivojlanish – maxsus seminarlar, amaliy musiqaterapevtlar bilan hamkorlik (J.Bradd) va talabalar bilan teskari aloqa tahlili orqali uzluksiz rivojlanish.

Tadqiqot musiqa terapiyasining tibbiyot ta'limiga integratsiyasini ta'minlovchi pedagogik shartlarni tizimlashtirishga qaratilgan. Unda ta'limiy va terapevtik yondashuvlarni samarali uyg'unlashtirish imkonini beruvchi metodik asoslar ishlab chiqilgan. Shuningdek, Shvetsiya olimi Pontvik maktabi va A.Tomatis konsepsiyasi kabi ilg'or xorijiy tajribalar O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan. Mamlakatda musiqa terapiyasini tibbiyot va ta'limga kompleks joriy etish bo'yicha yagona tizim shakllanmagan bo'lib, ushbu tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning «**Tibbiy ta'limda talabalar mustaqil faoliyatining metodik asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobi musiqa terapiyasini o'rganish kontekstida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining mustaqil faoliyatini tashkil etishning metodik jihatlariga bag'ishlangan. Ushbu bobda talabalarning o'quv mustaqil ishlarini samarali tashkil etishga yordam beradigan asosiy parametrlar, shuningdek, musiqa terapiyasi mashg'ulotlari jarayonida qo'llaniladigan usullar va texnologiyalar ko'rib chiqilgan.

Biz tadqiqotda talabalar mustaqil faoliyatini o'quv materialini maqsadli ravishda o'zlashtirishga yo'naltirilgan jarayon sifatida belgiladik, bu esa talabalardan o'z-o'zini nazorat qilish hamda o'z faoliyatini yuqori darajada tartibga solishni talab qiladi. Ta'kidlash lozimki, musiqa terapiyasi jarayonida tashkil etilgan mustaqil faoliyat talabalar kognitiv, hissiy va kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Tadqiqotimiz doirasida pedagogik sharoitlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish maqsadida pedagog tomonidan ataylab yaratilgan tashqi omillar sifatida qaraldi (2.1.1-rasm). Ushbu shart-sharoitlar rejalashtirilgan natijalarga erishishda asosiy rol o'ynaydi, bu esa I.F.Berejnaning pedagogik sharoitlarni ongli ravishda shakllantiriladigan holatlar sifatida belgilash haqidagi pozitsiyasiga mos keladi.

Ushbu jihatlar tibbiyot yo'nalishi talabalarining mustaqil faoliyatini har tomonlama rivojlantirish uchun samarali ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi, bu ayniqsa musiqa terapiyasi mashg'ulotlarida alohida ahamiyat kasb etadi.


Biz musiqa terapiyasi jarayonida talabalar mustaqil faoliyatini tashkil etish texnologiyasini ishlab chiqdik, unda refleksiya, hissiy intellekt hamda kasbiy mustaqillikni rivojlantirish uchun o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida dialogik o‘zaro ta’sir asosiy usul sifatida qo‘llanildi. Talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish, ijodiy yondashuv hamda kasbiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan musiqiy topshiriqlar va mashqlar amalga oshirildi.



2.1.1-chizma. Mustaqil jarayonni samarali tashkil etishning omillari

Ta‘lim jarayonining tarkibiy jihatdan maqsadga yo‘naltirilganligi, natijalarning muntazam diagnostik tekshirilishi hamda o‘qitish jarayonining bosqichlarga ajratilishi takrorlanadigan siklni hosil qiladi. Bu o‘z navbatida talabalar tomonidan nazariy bilimlarning chuqur o‘zlashtirilishiga hamda amaliy ko‘nikmalarning mustahkamlanishiga imkon yaratadi.

Ushbu sikl uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi (2.2.1-chizma).



2.2.1-chizma. Bosqichma-bosqich mustaqil faoliyatni tashkil etish texnologiyasi.


Maqsadlarga erishish uchun har bir bosqichda shakllantiriladigan va asosiy kompetentsiyalarni izchil rivojlantirishga qaratilgan xususiy didaktik vazifalardan foydalaniladi:

- Me'yoriy daraja: musiqa terapiyasining asosiy tuzilishini o'rgatish.
- Yetarli daraja: muayyan vaziyatlar uchun musiqiy jo'rliqni tanlash qobiliyatini rivojlantirish.
- Ijodiy daraja: musiqiy ohanglarni tahlil qilish, ularning tabiati va eshitishga bo'lgan hissiy yo'nalishini aniqlash.

Ushbu vazifalar talabalarda amaliy yo'naltirilgan fikrlashni shakllantiradi, ularning tahliliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi, shuningdek, ta'lim va kasbiy amaliyotda musiqiy yondashuvlarni moslashtirishga tayyorlaydi.


Shuningdek, talabalarning o'quv mustaqil faoliyatini tizimli tashkil etish uchun musiqa terapiyasi (DGU 49486) misolida platforma ishlab chiqildi va taqdim etildi. Bu platforma o'qitishning interaktiv shakllarini, talabalarning motivatsiyasini va ta'lim jarayoniga jalb etilishini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar hamda usullarni o'z ichiga oladi. Mazkur yondashuv ta'limni individuallashtirish, qulay ta'lim muhitini yaratish va o'quv-uslubiy ta'minotni takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Bobda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda pedagogik va psixologik jihatlarni qamrab olgan yaxlit yondashuvning ahamiyatiga e'tibor qaratilgan. Musiqa terapiyasini o'quv jarayoniga kiritish kasbiy jihatdan muhim bo'lgan va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchilarning ruhiy holatini yaxshilashga va ularning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishga ko'maklashadi.



2.2.3-chizma. “Tibbiyot talabalari mustaqil faoliyatini musiqa terapiyasi jarayonida tashkil etish texnologiyasi”

Ushbu tizimni ishlab chiqish va joriy etish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ldi:



2.3.1-chizma. Mustaqil faoliyat olib borish bosqichlari

Dissertatsiyaning “Musiqa terapiyasi mashg‘ulotlari jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish uchun pedagogik usullarni joriy etishdan olingan natijalar va samaradorlik tahlili” deb nomlangan uchinchi bobi tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga Musiqa terapiyasi usullarini joriy etish natijalarini umumlashtirishga bag‘ishlangan. Bobning asosiy maqsadi talabalarning mustaqil faoliyati va kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirish kontekstida ushbu usullarining samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Musiqa terapiyasini o‘rganish jarayonida talabalarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan pedagogik usullar tahlil qilindi. Ushbu usullarning samaradorligi talabalarning jalb etilish darajasi, ta’lim jarayonidan qoniqish darajasi va fanni o‘zlashtirish natijadorligini aniqlashga mo‘ljallangan so‘rovnoma hamda maxsus tashkil etilgan tajribalar yordamida baholandi.

Tajriba-sinov ishlarini xolisona baholashni ta’minlash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazish, suhbatlashish va kuzatish kabi ma’lumot to‘plash usullari qo‘llanildi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari tajriba va nazorat guruhlarini ko‘rsatkichlarini taqqoslash va sifatli qiyosiy tahlil o‘tkazish imkonini beruvchi jadvallarda aniq aks ettirildi.

Tajriba-sinov ishlari tibbiyot yoʻnalishi talabalarining mustaqil faoliyat koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda "Musiqqa terapiyasi" oʻquv fanining samaradorligini tasdiqladi. Jadvallarda keltirilgan statistik maʼlumotlar tajriba guruhi talabalarining mustaqil ish koʻrsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ijobiy oʻzgarish dinamikasiga ega ekanligini koʻrsatmoqda.

Musiqqa terapiyasi mashgʻulotlari jarayonida tibbiyot yoʻnalishi talabalarining bilimlarini nazorat qilishning taklif etilgan texnologiyasi samaradorlik darajasi oldindan belgilangan mezonlar asosida aniqlandi va "Tibbiyot yoʻnalishi talabalarining musiqqa terapiyasi mashgʻulotlari jarayonida tajribadan oldingi va keyingi mustaqil faoliyati" statistik koʻrsatkichlarining umumiy jadvalida aks ettirildi (1-jadval).

1-jadval

Tibbiyot talabalari mustaqil faoliyatining musiqqa terapiyasi mashgʻulotlari jarayonida tajribadan oldingi (T.o.) va tajribadan keyingi (T.k.) statistik koʻrsatkichlarining umumiy jadvali

Mezonlar	Tajriba guruhi (400 nafar respondent)						Nazorat guruhi (400 nafar respondent)					
	Yuqori		Oʻrta		Past		Yuqori		Oʻrta		Past	
	T.o	T.k.	T.o	T.k.	T.o	T.k.	T.o	T.k.	T.o	T.k.	T.o	T.k.
Oʻrganish motivatsiyasi	84	189	146	145	170	66	78	91	143	189	179	120
Ijrochilik	82	187	147	142	171	71	75	87	145	186	180	127
Amaliy kompetentsiya	84	190	150	143	166	67	74	88	146	190	180	122
Mustaqillikni baholash	86	186	149	146	165	68	77	86	142	187	181	127
Oʻrtacha	84	188	148	144	168	68	76	88	144	188	180	124

Izoh: T.o. – tajribadan oldin, T.k. – tajribadan keyin.

Tajriba-sinov ishlari boshlanishida tibbiyot oliy oʻquv yurtlari talabalari musiqiy terapiya mashgʻulotlari davomidagi mustaqil faoliyatining statistik koʻrsatkichlari turli OTMLar kesimida taqqoslandi (2-jadval).

2-jadval

Tibbiyot talabalari mustaqilligining musiqa terapiyasi mashg'ulotlari davomidagi ko'rsatkichlari qiyosiy jadvali (tajriba boshlanishidan oldin)

Tajriba guruhi	Tadqiqot obyekti	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institute	41	71	70	192
	Andijon davlat tibbiyot instituti	24	41	55	110
	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti	19	36	43	98
	Jami	84	148	168	400
Nazorat guruhi	Tadqiqot obyekti	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institute	33	62	76	171
	Andijon davlat tibbiyot instituti	22	40	55	117
	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti	21	42	49	112
	Jami	76	144	180	400

Mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida tajriba-sinov ishlarining boshlang'ich natijalari keltirildi (3-jadvalga qarang).


3-jadval

Tibbiyot talabalari mustaqil faoliyatining musiqa terapiyasi mashg'ulotlari jarayonidagi qiyosiy tahlili (tajribadan oldingi holatda raqamlar va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish natijalari (% hisobida)		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba guruhi	400	84	148	168
		21	37	42
Nazorat guruhi	400	76	144	180
		19	36	45

Tajriba va nazorat guruhlari talabalarining bilim darajalaridagi farqlarning statistik ahamiyatini baholash maqsadida, tajribadan oldin va keyin o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari Student va Pearsonning ikki tomonlama tanlanma matematik-statistik usullari yordamida hisob-kitob qilindi. Olingan ma'lumotlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, dastlabki sinov bosqichida tajriba va nazorat guruhlarining o'rtacha ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqlar statistik jihatdan ahamiyatli emas edi. Ushbu tahlil natijalari diagramma shaklida taqdim etildi.

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhidagi "a'lo" va "yaxshi" baholardagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari tajribaning boshlang'ich bosqichida nazorat guruhining xuddi shunday ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada farq qilmaydi. Biroq, 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, musiqa terapiyasi mashg'ulotlari jarayonida tibbiyot talabalari mustaqil faoliyatini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari amalga oshirilgandan so'ng, tajriba guruhida talabalarining bilim darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi.



3.3.1-rasm. Musiqa terapiyasi mashg'ulotlari jarayonida tibbiyot talabalari mustaqil faoliyatining qiyosiy tahlil diagrammasi (tajribadan oldin)

Olingan natijalar asosida belgilangan mezonlar bo'yicha tajriba-sinov ishlarining yakuniy o'rtacha ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Musiqa terapiyasi mashg'ulotlari jarayonida tibbiyot talabalari mustaqil faoliyatining yo'nalishlar bo'yicha qiyosiy tahlil jadvali (tajribadan keyin)

Tajriba guruhi	Tadqiqot obyekti	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	91	69	32	192
	Andijon davlat tibbiyot instituti	52	39	19	110
	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti	45	36	17	98
	Jami	188	144	68	400
Nazorat guruhi	Tadqiqot obyekti	Yuqori	O'rta	Past	Jami
	Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti	38	81	52	171
	Andijon davlat tibbiyot instituti	27	49	41	117
	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti	23	58	31	112
		Jami	88	188	124


Mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida tajriba-sinov ishlarining yakuniy hisobi o'tkazildi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Tajribadan so‘ng musiqa terapiyasi mashg‘ulotlari jarayonida tibbiyot talabalari mustaqil faoliyatining qiyosiy tahlil dinamikasi (son va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O‘zlashtirish natijalari (% hisobida)		
		Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba guruhi	400	188	144	68
Nazorat guruhi	400	88	188	124

Buni diagramma shaklida ifodalaylik.



3.3.2-rasm. Musiqa terapiyasi mashg‘ulotlari jarayonida tibbiyot talabalari mustaqil faoliyatining qiyosiy tahlil diagrammasi (tajribadan keyin)

Keltirilgan diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan yuqoriroq ko‘rsatkichlarni namoyish etmoqda.

Olingan natijalar asosida ma’lumotlarning matematik-statistik tahlili o‘tkazildi. 6-jadvalda tajriba yakunidagi statistik ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymatlari, tanlanma dispersiya, variatsiya ko‘rsatkichlari, erkinlik darajasi ko‘rsatilgan holda hisoblangan Studentning tanlanma mezonini, Pearsonning muvofiqlik mezonini, shuningdek ishonch oralig‘i va chetlanishlar keltirilgan.

7-jadval

Tajribadan oldin musiqa terapiyasi mashg‘ulotlari davomida tibbiyot talabalari mustaqil faoliyatining statistik ko‘rsatkichlari (raqamlar va foizlarda)

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
2,30	1,91	0,5500	0,5219	1,61	1,88	7,65	388	58,40	0,07	0,07

Olingan natijalar asosida tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblab chiqamiz. Bizga ma'lumki,

$$\bar{X}=2,30; \bar{Y}=1,91, \quad \Delta_x = 0,07; \Delta_y = 0,07 .$$

Shundan kelib chiqadigan sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{yco} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,30 - 0,07}{1,91 + 0,07} = \frac{2,23}{1,98} \approx 1,13 > 1;$$

$$K_{oco} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,30 - 0,07) - (1,91 - 0,07) = 2,23 - 1,84 = 0,39 > 0;$$

Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qitish samaradorligini baholash ko'rsatkichi birdan yuqori, bilimlarni o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichi esa ijobiy qiymatga ega. Bu esa tajriba guruhi talabalarining o'zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan 13,1 foizga yuqori ekanligini anglatadi.

O'tkazilgan statistik tahlil natijalariga ko'ra, musiqa terapiyasi mashg'ulotlari jarayonida tibbiyot talabalarining mustaqil faoliyatini tashkil etish bo'yicha kompetensiyalarning shakllanishi tajriba guruhida nazorat guruhiga qaraganda sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Olingan natijalar amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

XULOSA

1. Tadqiqot jarayonida musiqa terapiyasini o'rganish doirasida tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining mustaqil faoliyatini tashkil etish bo'yicha nazariy asoslar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Olib borilgan ishlar ta'lim samaradorligini oshirish va talabalarning kasbiy hamda shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ko'maklashadigan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy maqsadi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining "Musiqa terapiyasi" fani doirasidagi mustaqil ishlarini tashkil etish texnologiyasini yaratish va sinovdan o'tkazishdan iborat edi. Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida musiqiy terapevtik usullarni ta'lim jarayoniga integratsiyalash nafaqat talabalarining akademik natijalarini yaxshilashga, balki ularning shaxsiy va kasbiy o'sishiga ham hissa qo'shishi aniqlandi.

2. Musiqa terapiyasini o'rganish jarayonida talabalarining mustaqil ishlarini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy pedagogik shartlari sifatida quyidagi jihatlar belgilandi:

- O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi dialogik munosabat, bu talabalarining o'quv vazifalarini hal qilishda refleksiv ko'nikmalarini va ijodiy yondashuvini shakllantirishga asos bo'ladi. Bunday o'zaro ta'sir ularning o'quv jarayonida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi, materialni tushunishni yaxshilaydi hamda stressga

chidamlilik, muloqot ko'nikmalari va klinik fikrlash kabi kasbiy kompetentsiyalarni rivojlantirishga ko'maklashadi.

•Talabalarni mustaqil faoliyatga undash, bu o'quv jarayoni muvaffaqiyatining muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot davomida talabalarda musiqa terapiyasiga qiziqish orqali shakllangan ichki motivatsiya va o'quv maqsadlarini aniq tushunish ularning mustaqil ta'lim olishga tayyorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. O'qitish usullarining xilma-xilligi, jumladan mashg'ulotlarning faol va interaktiv shakllari talabalarning o'quv faolligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

•Talabalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi o'quv-uslubiy ta'minot, u talabalarning ijodiy o'zini namoyon qilishlari uchun sharoit yaratishga qaratilgan nazariy va amaliy materiallarni o'z ichiga oladi. Sifatli o'quv mazmunini yaratish va o'quv materiallarini muntazam yangilab borish talabalarga zamonaviy usullar va texnologiyalarni o'zlashtirishga imkon beradi, bu esa musiqa terapiyasi fanini muvaffaqiyatli o'zlashtirish va olingan bilimlarni kasbiy amaliyotda qo'llash uchun zarurdir.

•O'qitishda innovatsion texnologiyalar va fanlararo yondashuvdan foydalanish, bu tibbiyot, psixologiya va pedagogika kabi turli sohalar bo'yicha bilimlarni birlashtirish imkonini beradi hamda talabalarda tanqidiy fikrlash, o'zini tashkil etish, fanlararo hamkorlik qobiliyati va kasbiy muhitning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashish kabi keng qamrovli ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida musiqa terapiyasini qo'llash nafaqat talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishga yordam berishi, balki ularning hissiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, stressni kamaytirishi va o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirishi haqidagi farazning tasdiqlanishi tadqiqotning muhim natijasi bo'ldi. Ushbu ma'lumotlar tadqiqot doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari bilan tasdiqlandi, bunda musiqa terapiyasi kursini o'tgan talabalar hissiy barqarorlik, o'zini boshqarish va ijodiy fikrlash kabi sohalarda yaxshilanishni namoyish etdilar.

4. Shuningdek, musiqiy terapevtik usullarni joriy etish shaxslararo muloqot va kasbiy empatiya ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi aniqlandi, bu ayniqsa stressli va hissiy jihatdan boy vaziyatlarda ishlaydigan bo'lajak shifokorlar uchun muhimdir. Bu talabalarga nafaqat kognitiv va hissiy ko'nikmalarini yaxshilash, balki tibbiyot mutaxassislarini tayyorlashda muhim jihat bo'lgan bemorlar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini oshirish imkonini beradi.

5. Olingan natijalar tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, shuningdek musiqa terapiyasi usullarini o'z ichiga olgan yangi kurslar va o'quv materiallarini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin. Ushbu usullarni ta'lim jarayoniga joriy etish nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga, balki zamonaviy tibbiy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lgan talabalarning psixo-emotsional salomatligi sohasidagi muhim vazifalarni hal qilishga ko'maklashadi.

6. Shunday qilib, tibbiyot oliy o'quv yurtlarining ta'lim jarayoniga musiqiy terapevtik usullarni joriy etish talabalarni o'qitish va tayyorlash sifatini oshirish, shuningdek ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish uchun muhim va

samarali vosita ekanligini ta'kidlash mumkin. Kelajakda bu sohadagi tadqiqotlarni davom ettirish, musiqa terapiyasini tibbiy ta'lim va amaliyotning boshqa jabhalarida qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Amaliy va metodik tavsiyalar:

1. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarining ta'lim dasturlariga "Musiqa va salomatlik" kursini kiritish zarur.

2. O'qituvchilar uchun ta'lim jarayoniga musiqiy terapiya usullarini joriy etish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar tayyorlash maqsadga muvofiq.

3. O'qituvchilar uchun musiqiy terapiya usullarini qo'llash bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim. Tadqiqot natijalari tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturlarini takomillashtirish va yangi kurslar yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
PhD.04/02.07.2024.Tib.122.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ФЕРГАНСКОМ МЕДИЦИНСКОМ ИНСТИТУТЕ
ОБЩЕСТВЕННОГО ЗДОРОВЬЯ**

**ФЕРГАНСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ ОБЩЕСТВЕННОГО
ЗДОРОВЬЯ**

ШАЛАНКОВ КОНСТАНТИН КОНСТАНТИНОВИЧ

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ОРГАНИЗАЦИИ
САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ – МЕДИКОВ
В ПРОЦЕССЕ ЗАНЯТИЙ МУЗЫКОТЕРАПИЕЙ**

13.00.02 – Теория и методика образования и воспитания (медицина)

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

Фергана – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за №В2024.2. PhD/Ped7955.

Диссертация выполнена в Ферганском медицинском институте общественного здоровья. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский) на сайте Ферганском медицинском институте (www.fjsti.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyouneb» (www.ziyouneb.uz)

Научный руководитель: Кадилова Мушира Расуловна
Доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: Эгамбердиева Тургуной Ахмаджонова
Доктор педагогических наук, профессор
Олимова Дано Шакировна
Кандидат педагогических наук, доцент.

Ведущая организация: Бухарский государственный
медицинский институт

Защита диссертации состоится «30» мая 2025 года в 9:00 часов на заседании разового научного совета, созданного на основании научного совета PhD при Ферганском медицинском институте общественного здоровья, (Адрес: 160119, город Фергана, улица Янги Турон, дом 2а. Тел.: +998(95) 202-23-45; факс: +998(95) 202-23-45; E-mail: info@fjsti.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского медицинского института общественного здоровья (зарегистрирована под номером 287). Адрес: 160119, г. Фергана, улица Янги Турон, дом 2а. Тел.: +998(95) 202-23-45; факс: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Автореферат диссертации разослан «16» 05 2025 года.
(Протокол рассылки № 6 от 20.05 2025 года.)



Ф.Ю.Юлдашев
Председатель разового научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор медицинских наук, профессор

М.Т.Расулова
Ученый секретарь разового научного
совета, по присуждению ученых степеней, PhD

Н.Б.Комилов
Председатель Научного семинара при
разовом научном совете по присуждению
ученых степеней, д.п.н., профессор.

Введение (аннотация диссертации доктора философии PhD)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Проблемы, стоящие перед современным медицинским образованием в мире, в частности, высокий уровень стресса среди студентов и необходимость быстрого освоения новых медицинских технологий, требуют внедрения инновационных педагогических подходов. В качестве одного из таких подходов можно использовать дисциплину “Музыкотерапия”, поскольку она способствует развитию профессиональных и личностных качеств будущих специалистов, улучшает их эмоциональное состояние и развивает навыки саморегуляции. Музыкотерапия как наука обладает большим потенциалом в развитии профессиональных и личностных качеств будущих специалистов. Она охватывает интегрированный подход, включающий медицинские, психологические и педагогические аспекты. Это позволяет студентам не только совершенствовать свои профессиональные компетенции, но и повышать эмоциональную устойчивость, развивать креативность, самоорганизацию и способность к непрерывному обучению. Это приобретает особое значение в условиях быстро обновляющихся знаний и технологий.

Организация самостоятельного изучения дисциплины “Музыкотерапия” студентами ведущих медицинских вузов мира имеет важное значение для достижения поставленных целей. Она способствует формированию у студентов навыков критического мышления, самостоятельного анализа, планирования и принятия решений. Такие качества необходимы медицинским специалистам для эффективного усвоения учебного материала, налаживания междисциплинарного сотрудничества и адаптации к современным требованиям профессиональной среды. Во многих странах Западной Европы и США возникли и получили популярность центры музыкальной психотерапии: в Швеции и Австрии - "Österreichische Gesellschaft zur Förderung der Musiktherapie," в Швейцарии - "Schweizer Forum für Musiktherapie," в Германии - "Bundesarbeitsgemeinschaft-Musiktherapie" (BAG Musiktherapie). В Польше изучается эффективность музыкотерапии в лечении деменции, шизофрении и депрессии. Музыкотерапия как учебная дисциплина получила широкое распространение в ведущих медицинских образовательных и клинических учреждениях мира. Большое значение приобретает реализация программ подготовки специалистов, ориентированных на клиническую практику и научные исследования, в Великобритании (Университет Роэмптон), Германии (Университет SRH в Гейдельберге) и США (Музыкальная школа Фрост при Университете Майами).

В нашей стране также необходимо развивать музыкальную терапию как неотъемлемую часть образовательного процесса в медицинских высших учебных заведениях. Внедрение этого направления не только расширит профессиональные навыки будущих врачей, но и повысит эффективность реабилитационных программ, направленных на психологическую и эмоциональную поддержку пациентов. "Обучение учащихся современным

знаниям и навыкам посредством развития системы образования²" определено в качестве важной приоритетной задачи. В процессе изучения музыкальной терапии необходимо уделять особое внимание созданию педагогических условий, способствующих организации самостоятельной деятельности студентов-медиков. Это позволит им глубже освоить механизмы воздействия музыки на организм человека, научиться применять методы музыкальной терапии на практике и развить научно-исследовательские навыки.

Указы Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 "Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года," от 28 января 2022 года № УП-60 "О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы," Постановления Президента Республики Узбекистан от 6 мая 2019 года № ПП-4310 "О мерах по дальнейшему развитию системы медицинского и фармацевтического образования и науки," от 5 июня 2018 года № ПП-3775 "О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах," а также другие нормативно-правовые документы, принятые в данной сфере, определяют задачи, в реализации которых данная диссертационная работа служит в определенной степени.

